

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>V.Y.Isaqov, L.A.Tadjibayeva</b>	
Farg'ona shahrining geokimyoviy landshaftlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari .....	117
<b>Sh.Q.Yuldasheva</b>	
Aqliy mehnat paytida qondagi qand miqdorini turli yoshdagи odamlarda o'zgarishi.....	122
<b>Z.A.Jabbarov, G.R.Atoyeva, M.H.Husniddinova</b>	
Tuproqlarning kimyoviy ifloslanish natijasida biologik xossalaringin o'zgarishi .....	127
<b>X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov</b>	
Cynara scolymus L. O'simligidan ajratib olingen endofit zamburug'lar ekstraktlarining saraton hujayralariga qarshi biologik faoliklari .....	133
<b>S.Israiljanov, J.T.Mamasaidov, H.O.Adulboqiyeva</b>	
Og'ir metallarning o'simlik, hayvonlar va odam organizmiga fiziologik ta'sirini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili .....	138
<b>M.K.Julihev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov</b>	
Markaziy Osiyoda tuproq eroziysi bo'yicha 1993-2022-yillar oraliq'ida Scopus ma'lumotlar bazasida nashr etilgan maqolalar tahlili .....	143
<b>X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov</b>	
Analysis of macro and micro elements and water-soluble vitamins of the plant Cynara scolymus L.....	149
<b>S.O.Madumarova, M.Sh.Raximov, M.J.Madumarov, A.A.Tokoev</b>	
Farg'ona vodiysi Cladocera ( <i>Crustacea: Branchiopoda</i> ) lari ro'yxati.....	157
<b>Z.A.Jabbarov, T.Abdraxmanov, O.N.Imomov, J.J.Abdukarimov</b>	
Tuproq sifati indikatorlari va ularni qo'llanilishi.....	166
<b>M.A.Tog'ayeva, Sh.A.Samatova</b>	
Qashqadaryo viloyati aholisi iste'mol qilayotgan yumshoq bug'doy navlari tarkibidagi temir elementi miqdori.....	176
<b>M.A.Davidov</b>	
Tabiiy sharoitda <i>Mogoltavia sewerzowii</i> (Regel) korovin antekologik xususiyatlari .....	181
<b>X.N.Raximov, G.T.Djalilova</b>	
Qo'llanilgan mineral va organik o'g'it me'yorlarini tuproqlarni agrokimyoviy xossalaraiga ta'siri .....	186
<b>M.R.Qoriyev</b>	
Global iqlim isishi sharoitida mevali daraxtlar vegetatsiyasidagi o'zgarishlar .....	191
<b>O.N.Nasirov</b>	
Mustaqillikni dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi .....	196
<b>R.A.Ikromov</b>	
Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda milliy qadriyatlarning roli .....	200
<b>S.Nishonova</b>	
Maqollar paremiologik birlik sifatida .....	205
<b>Sh.A.Tadjibaeva</b>	
Rahbar ayol imidi tushunchasi va uni shakllantirishning psixologik xususiyatlari .....	208
<b>S.S.Jabborova</b>	
Yangi O'zbekistonni barpo etishda ma'naviy salohiyatdan foydalanish istiqbollari .....	213
<b>E.U.Gulzoda, A.Z.Rashidov</b>	
Ijodiy faoliyat uchun, o'quv mashg'ulotlarining o'ziga xos uslubiy chizmasiga egaligi, ijodkorlarning eksperimental ishiga katalizator bo'lib xizmat qilishi omillari .....	219
<b>K.M.Nilufar</b>	
Turli tarixiy kontekstlarda intellektual madaniyat masalasi.....	222
<b>T.Quyliev</b>	
Global ekologik muammolar va ularning oldini olishda xalqaro institutlarning roli .....	227
<b>B.M.Qandov</b>	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda sog'lom mafkuralarning roli .....	233
<b>Z.A.Akbarova, G.M.Nasirova</b>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga bilingvismning ta'siri .....	238
<b>F.F.Muydinov</b>	
Tibbiy ta'limda mediata'lim asosida o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning ayrim jihatlari.....	242



УО'К. 664.162+612.11/12

**AQLIY MEHNAT PAYTIDA QONDAGI QAND MIQDORINI TURLI YOSHDAGI  
ODAMLARDA O'ZGARISHI**

**ИЗМЕНЕНИЕ САХАРА В КРОВИ ВО ВРЕМЯ УМСТВЕННОЙ РАБОТЫ У ЛЮДЕЙ  
РАЗНОГО ВОЗРАСТА**

**CHANGES IN BLOOD SUGAR DURING MENTAL WORK IN PEOPLE OF DIFFERENT  
AGE**

**Yuldasheva Shoxista Qobiljonovna**

Farg'ona davlat universiteti Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasi dotsenti, biologiya  
fanlari nomzodi

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada qondagi qand miqdorini tinch va aqliy mehnat paytidagi miqdorlarini o'zgarishi haqida ma'lumotlar berilgan. Qondagi glyukoza miqdorini boshqarish murakkab kompleks jarayon bo'lib, unda jiga dan tashqari boshqa organlar ham faol qatnashadi. Ularning funksiyalari nerv va gumoral faktorlarning o'zaro ta'siri bilan ta'minlanadi. Glyukozaning qondagi doimiyligiga va uning boshqarilishiga organizmdagi gormonlarning ham ta'siri katta.*

**Аннотация**

*В данной статье представлена информация об изменении уровня сахара в крови во время отдыха и умственной работы. Контроль количества глюкозы в крови – сложный процесс, в котором помимо печени активно участвуют и другие органы. Их функции обеспечиваются взаимодействием нервных и гуморальных факторов. Гормоны в организме также оказывают большое влияние на стабильность уровня глюкозы в крови и управление ею.*

**Abstract**

*This article provides information on changes in blood sugar levels during rest and mental work. Controlling the amount of glucose in the blood is a complex process, in which other organs besides the liver are actively involved. Their functions are provided by the interaction of nervous and humoral factors. Hormones in the body also have a great influence on the stability of glucose in the blood and its management.*

**Kalit so'zlar:** Glyukoza, gormonlar, metabolik jarayon, endokrin sistema, gipatolamus, moddalar almashinuvi, glikogen.

**Ключевые слова:** Глюкоза, гормоны, обменный процесс, эндокринная система, гипоталамус, обмен веществ, гликоген.

**Key words:** Glucose, hormones, metabolic process, endocrine system, hypothalamus, metabolism, glycogen.

**KIRISH**

Organizmda kechadigan barcha metabolik jarayonlarning fiziologik boshqarilishi nerv va gumoral mehanizmlar orqali o'tadi. Gumoral, ya'ni suyuqliklar orqali bajariladigan aloqalar asosan ichki sekretsiya bezlarining mahsuloti hisoblangan gormonlar nomli kimyoviy molekulalar ishtirokiga bog'liq. Ichki sekretsiya bezlarining kelib chiqishi va alohida a'zolar bo'lilar ham moslashib ishlaydigan bir butun sistema- endokrin sistemani tashkil qiladi. Uni boshqarib turadigan markaz miyani ixtisoslashgan chegarali doirasi gipatolamus bo'lib, u markaziy nerv sistemadan keladigan signallarni qabul qiladi va javob qaytaradi.

**ADABIYOTLAR SHARXI**

И.И.Иванов "Введение в клиническую биохимию" adabiyotida moddalar almashinuvida jigarning ahamiyati va shuningdek qonda glyukozani normadan ortib ketishi natijasida sog'lom odamda jigar glikogenni sintez qilishi alohida ta'kidlab, glikogenning jigar va skelet muskullarida alohida zapas holda saqlanishi haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, organizmda glyukoza yetishmasa, odam och qolganda va ko'p energiya sarflaganda glikogen fosforilza

## BIOLOGIYA

fermenti ta'sirida parchalanadi va undan glyukoza hosil bo'ladi. Unda qondagi glyukoza doimiyligini saqlab turishdagi ishtiroki yoritib berilgan.

E.B.Babskiy "Odam fiziologiyasi" adabiyotda normal fiziologik holatda odam qonida 80-120 mg % yoki 3,5-5 mmol qand bo'lishligi haqida, shuningdek mazkur adabiyotda glyukozani qondagi miqdori aqliy yoki jismoniy mehnat paytida va stress holatlarda o'zgaradi va bu holat odamning fiziologik holatiga ta'sir etadi deb aytib o'tilgan. Uning miqdorini idora qilishda insulin, glyukagon va adrenalin gormonlari asosiy o'rinnegallashi va ularning tashilishi oshqozon osti bezini samotostatin va pankreatin nomli uncha katta ahamiyatga ega bo'lmagan mahsulotlari borligini ta'kidlab o'tgan.

Sog'lom odamning arterial va kapillyar qonida glyukoza miqdori 54-96 mg/ 100 ml (glikozooksidoz metodi bo'yicha) va 80 -120 mg/ 100 ml (Xagedorn va lenson metodi bo'yicha) bo'ladi. Venoz qon tarkibida glyukoza oz bo'ladi, chunki uni qondan to'qimalar o'zlashtirgan. Endogen glyukozani umumiy sirkuliylatsiyasiga chiqaradigan yagona organ bu jigardir. Uglevodlarga boy bo'lgan ovqat iste'mol qilinganda jigar darvoza venasida glyukoza miqdori 200-220 mg / 100 ml ga yetadi. Lekin qolgan barcha qon aylanish sistemasida sog'lom odamda glyukoza miqdori o'zgarmasligi yoki ozgina ortishi kuzatiladi. Natijada, ortiqcha glyukoza siyidik bilan chiqib ketadi. 1,5-2 soatdan so'ng yana normaga qaytadi. Qondagi glyukoza 120-150 mg % bo'lganda glyukoza siyidik bilan tashqariga chiqarila boshlaydi. Bu holat bordaniga 160-180 g qand, shakar iste'mol qilinganda ham kuzatiladi. Sog'lom odamda uglevod ochligi yoki aktiv jismoniy ish vaqtida glyukozaning ko'p sarflanishi qondagi glyukoza miqdorining normadan sezilarli o'zgarishiga olib kelmaydi.

Shunday qilib, organizmda qondagi glyukoza miqdorining doimiyligi uzlusiz ravishda ta'minlanadi ya'ni gomeostatik boshqarilib turiladi. Gomeostazda biror moddaning organizmda konsentratsiyasining kamayishi shu moddaning normal konsentratsiyasini tiklashga qaratilgan jarayonlarni boshlab beradi. Ya'ni avtoregulyatsiya amalga oshadi. Qonda glyukoza miqdorining boshqarilishi jigarning gomeostatik regulatorlik funksiyasini amalga oshirilishidir (A.A.Anisimov 1986 yil). Glyukozaning glikogenga aylanishi va uning teskarisi gormonlar ta'sirida amalga oshadi, insulin gormoni qondagi glyukoza miqdorini kamaytiradi, glyukagon va adrenalin gormonlari insulinga teskari ta'sir qiladi, bu gormonlarning sintezi o'z navbatida qondagi glyukoza miqdoriga bog'liq, shunday qilib, qaytar bog'lanishli avtomatik boshqarishning yopiq konturiga ega. Qondagi glyukoza miqdoriga markaziy nerv sistemasi to'g'ridan -tug'ri ta'sir qiladi. Bu gormonlarning sintezi o'z navbatida qondagi glyukoza miqdoriga bog'liq.

## OLINGAN NATIJALAR TAXLILI

1-jadval

## 20-25 yoshdagi talabalarning qonidagi qand miqdori natijalari

Tekshiriluvchi	Glyukoza mg %					
	1	2	3	4	E	x
1-guruh	20 – 25 yoshlar					
Rahimova G	83	79	73	77	312	78
Siddiqova G	80	81	84	87	332	83
Qo'chqorova R	81	83	87	88	339	84,7
Umarova D	77	80	79	83	319	79,7
Dehqanova F	85	88	83	89	345	86,2
Jami E <sub>x</sub>	406	411	406	424	1647	411,6
x S <sub>x</sub>	x=81,2 S <sub>x±1,8</sub>	x=82,2 S <sub>x±2,0</sub>	x=81,2 S <sub>x±1,8</sub>	x=84,8 S <sub>x±1,8</sub>	x=329 S <sub>x±7,5</sub>	x=82,3 S <sub>x±1,8</sub>

## 30-35 yoshdagи ko'ngilli ayollarning qonidagi qand miqdori natijalari

Tekshiriluvchi	Glyukoza mg%					
	1	2	3	4	E	X
<b>2-guruh</b>	<b>30-35 yoshlar</b>					
Nurmatova D	91	94	96	92	373	93,2
Ibragimova R	94	96	95	90	375	93,2
Soliyeva N	87	89	92	94	362	90,5
Abdullayeva R	88	91	86	88	353	88,2
Alimova N	90	93	89	91	365	90,7
Jami S <sub>x1</sub> x S <sub>x</sub>	450 x=90 S <sub>x</sub> ±1,5	463 x=92,6 S <sub>x</sub> ±1,5	458 x=91,6 S <sub>x</sub> ±2,2	455 x=91 S <sub>x</sub> ±1,3	1826 x=365,2 S <sub>x</sub> ±5	456,3 x=91,2 S <sub>x</sub> ±1,25

Qondagi glyukozaning 60-70 mg % ga kamayishi gipotalamusda joylashgan tegishli markazlarni reflektor qo'zg'alishiga olib keladi.

Biz odamning aqliy mehnat paytida qondagi qand miqdorining o'zgarishini o'rganish maqsadida Farg'ona endokrinologiya markazi laboratoriyasida tajribalar olib bordik. Avvalo, tajribalarimizda sog'lom bo'lgan kishilarning tanlab olishimizga to'g'ri keldi. Tajribamizga 20-25 yoshdagи 5 nafar talaba va 30-35 yoshdagи ishlayotgan tajribaga ko'ngilli ravishda jalb qilingan yoshlarni tanlab olib, tajriba o'tkazdik.

Ertalabki tinch holdagi 5 nafar talaba, 5 nafar ko'ngilli ayollarning qonidagi qand miqdori 1-2- jadvallarda berilgan.

Har ikkala jadvaldan ko'rinish turibdiki, 1-jadvalda talabalarning qonidagi qand miqdori keltirilgan va ularning qonidagi glyukozaning o'rtacha miqdori  $82,3 \pm 1,8$  mg % ga teng ekanligi aniqlangan.

2-jadvalda 30 -35 yoshlardagi ko'ngillarning qonidagi glyukozaning o'rtacha miqdori  $91,2 \pm 1,2$  mg % gat eng ekanligi aniqlandi.

20-25 yoshdagи talabalar bilan 30-35 yoshli ko'ngillilarining qonidagi qand miqdori tinch holda ham farq qiladi.

$$D = 91,2 - 82,3 = 8,9$$

Demak, ular o'rtasidagi farq 8,9 mg % ga eng. Bu farqning ishonchlilik darajasi xisoblab chiqarildi.

Bizning tajribalarimizda faktik son 4,2 ga teng ekanligi topildi.

$4,2 > 3,26$  dan katta bo'lganligi uchun bu 4,2 farq haqiqatdan ham ishonchli bo'lib, uning ishonchliligi  $P=0,01$  ga teng ekanligi aniqlandi.

**TAJRIBA QISMI**

Yuqoridagi talabalar va ko'ngilli ayollarga 1-1,5 soat davomida intensiv aqliy mehnat taklif qilindi, ular bu belgilangan vaqt ichida kitob o'qishdi, she'r mashq qilishdi, rasm chizib, matematik qiyin misollar yechishdi va shundan so'ng biz talabalar va ko'ngilli ayollarning qonini tekshiranimizda ular qonidagi qand miqdori quyidagicha o'zgardi.

## BIOLOGIYA

3-jadval

## 20-25 yoshli talabalar qonida aqliy mehnatdan so'ng qand miqdorini o'zgarishi

T/n	Tekshiriluvchi	Glyukoza mg%						
		1	2	3	4	E	X	
	1-guruhan	20-25 yoshlar						
1	Rahimova G	88	84	77	82	331	82,75	
2	Siddiqova G	85	86	89	92	352	88	
3	Qo'chqorova R	86	89	92	93	360	90	
4	Umarova D	83	85	84	87	339	84,75	
5	Dehqanova F	89	93	89	94	365	91,2	
	Jami E <sub>x1</sub>	431	437	431	448	1747	436,6	
	x S <sub>x</sub>	x=86,2 S <sub>x</sub> ±1,3	x=87,4 S <sub>x</sub> ±2,2	x=86,2 S <sub>x</sub> ±1,3	x=89,6 S <sub>x</sub> ±1,8	x=349,4 S <sub>x</sub> ±7,7	x=87,2 S <sub>x</sub> ±1,9	

4-jadval

## 30-35 yoshli ko'ngilli ayollarning qonida aqliy mehnatdan so'ng qand miqdorining o'zgarishi

T/n	Tekshiriluv-chi	Glyukoza mg%						
		1	2	3	4	5	6	
	2 - guruhan	30 – 35 yoshlar						
1	Nurmatova D.	96	95	96	93	380	95	
2	Ibragimova R	95	92	96	91	374	93,5	
3	Soliyeva N	93	94	91	94	375	93,7	
4	Abdullayeva R	95	93	91	94	373	92,2	
5	Alimova N	94	96	94	95	379	94,7	
	Jami E <sub>x1</sub>	473	470	473	465	1881	470,1	
	x S <sub>x</sub>	x=94,6 S <sub>x</sub> ±4,4	x=94 S <sub>x</sub> ±1,1	x=94,6 S <sub>x</sub> ±4,4	x=93 S <sub>x</sub> ±0,9	x=376,2 S <sub>x</sub> ±1,5	x=94,0 S <sub>x</sub> ±0,9	

3-4-jadvallarda birdaniga aqliy mehnatdan so'ng to'rttadan qon probasi olinib, ularning o'ttachasi hisoblab chiqilgan. Bunga ko'ra 20-25 yoshli talabalarning aqliy mehnatdan so'ng qonidagi qand miqdori  $87,2 \pm 1,9$  mg % ga oshganligi, 30-35 yoshli ko'ngilli ayollarda esa, aqliy mehnatdan so'ng qonidagi glyukoza miqdori  $94 \pm 0,3$  bo'lganli aniqlandi.

Bizning tekshiruvlarimizda intensiv 1-1,5 soatlilik aqliy mehnat paytida ular qonidagi glyukoza miqdori 4,9mg % ga oshdi. Lekin bu 4,9 mg % ga oshganligi statistik ishonchli emas. 30-35 yoshli ko'ngilliayollarda esa, glyukoza miqdori 2,8 mg % ga ortgani bilan bu ortish p= 0,05 ishonchlilik

darajasida ortdi. Bu aqliy mehnat bosh miyadagi simpatik adrenalin tizimini qo'zg'alishiga olib keladi va natijada qon tarkibida qand, siyidik tarkibida esa, 17-oksiketosteroidlar ortishi mumkin.

Qon bosimlari o'zgaradi, lekin bu o'zgarishlar aqliy mehnat paytidagi vaqt yetishmovchiligi va tanglikka bog'liq bo'ladi. Bunda qon aylanishi ortadi, uzoq vaqt aqliy mehnat qilish gipertoniyaning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

#### 5-jadval

#### Aqliy mehnatni 20-25 yoshli talabalar qonidagi glyukoza miqdorining o'zgarishiga ta'siri

T/n	Turli holatlarda	Belgilar	Glyukoza miqdori
1	Tinch holatda	$x^n \pm S_x$	82,3 <sup>5</sup> ± 1,8
2	Aqliy mehnatdan so'ng	$x^n \pm S_x$	87,2 <sup>5</sup> ± 1,9
3	d		4,9
4	t fakt		1,87
5	t standart		2,31
6	P		-

#### 6-jadval

#### Aqliy mehnatni 30-35 yoshli ko'ngilli ayollar qonidagi glyukoza miqdorini o'zgarishiga ta'siri

T/n	Turli holatlarda	Belgilar	Glyukoza miqdori
1	Tinch holatda	$x^n \pm S_x$	91,2 ± 1,2
2	Aqliy mehnatdan so'ng	$x^n \pm S_x$	94,0 ± 0,3
3	d		2,8
4	t fakt		2,33
5	t standart		2,31
6	P		0,05

#### XULOSA

Xulosa o'rnidida quydagilarni keltirish mumkin: 20-25 yoshli talabalarda 1-1,5 soatlik intensiv aqliy mehnat ishonarli tarzda qondagi glyukoza miqdorini o'zgarishiga olib kelmaydi. 30-35 yoshli ko'ngilli ayollarda 1-1,5 soatlik aqliy mehnat ular qonidagi glyukozani 2 mg % (ishonarli tarzda) ko'payishiga olib keldi. Ma'lum bo'lishicha, surunkali aqliy mehnat qondagi qand miqdorini kamaytirib, yurakni charchashiga olib kelishi mumkin. Surunkali aqliy mehnat yurak-qon tomir tizimida, asab sistemasida ma'lum o'garishlarni paydo qiladi. Diqqatning buzilishi, xarakatning susayishi, xotira va fikrlashning yomonlashuvi, irodaning susayishi va uyqusirash ro'y beradi. O'ta og'ir aqliy mehnat insonning yurak-qon tomir kasaliklari va gipertoniya bilan og'rishiga olib kelishi mumkin. Shuni oldini olish uchun men aqliy va jismoniy almashlab bajarishni va to'liq aktiv dam olishni taklif qilaman.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- А.А. Анасимов "Основы биохимии" М. "Высшая школа" 1986 г.
- Е. Б. Бабский "Odam fiziologiyasi" Т. "Meditina" 1990 у.
- П. Т. Березов "Биологическая химия" М. "Медицина" 1990 г.
- Д. Г. Кнорре, С. Д. Мызина "Биологическая химия" М "Высшая школа" 2000 г.
- G.M.Rahimova, S.Z.Akbarov, Z.M.Shomansurova "Qandli diabet haqida" Т. "Zarqalam" 2005 у.
- А. Qosimov "Biokimyo" Toshkent "O'qituvchi" 1987 у.
- Yo.X.To'raqulov "Bioximiya" Toshkent "O'zbekiston" 1996 у.